


SURXONDARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar- sentyabr)


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 7032,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,9 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 687,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 35.8%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 6290,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 4,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 745,2 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 % ga ko'paygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (21,6%), Boysun (5,9%), Termiz (4,7%), Denov (3,6%), Sho'rchi (3,0%) va Muzrabot tumanlarida (2,3%) qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 35,8 % ga o'sdi va 742,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,6 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 6290,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar- sentyabr oylariga nisbatan 4,2 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,4% ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik subsektorlarining ulushi bo'yicha Muzrabot (99,4 %), Uzun (99,1 %), Denov (97,1%) va Oltinsoy (96,9%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (32,7 %), Termiz (15,6%) va Jarqo'rg'on tumanlarida (5,3 %) kuzatilgan.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Termez shahri (23,3 %), Denov tumani (20,8%), Sho'rchi (8,8%), Sherobod (5,7 %) va Jarqo'rg'on (5,4%) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda




**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalar
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
--	------------------------------	---	---------------------------------	---

Surxondaryo viloyati	742,6	135,8	6290,3	104,2
Termiz Sh.	535,2	224,6	1100,3	99,5
Oltinsoy	9,0	51,5	284,8	104,9
Angor	11,4	60,2	305,1	105,2
Boysun	14,5	80,3	288,1	107,7
Muzrabot	1,5	17,2	270,6	105,8
Denov	42,4	69,4	1420,7	105,7
Jarqoqg'on	20,0	67,9	358,5	104,5
Qumqoqg'on	12,1	58,1	284,4	104,2
Qiziriq	10,2	60,8	293,6	104,1
Sariosiyo	16,1	95,1	283,3	103,5
Termiz	29,0	108,4	156,9	105,1
Uzun	2,4	18,1	264,0	106,0
Sherobod	16,7	60,6	382,8	105,6
Sho'chi	22,1	67,5	597,2	105,5

Hududlarda kichik tadbirkorlik subʻektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019 yil yanvar- sentyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat boʻyicha aholi jon boshiga 2714,3 ming soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 4,5 % ga koʻpaygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida oʻtgan yilga nisbatan viloyatning barcha hududlarida oʻsish koʻrsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori koʻrsatkilar Termiz shahri (11240,7 ming soʻm), Denov (3861,6 ming soʻm) va Shoʻrchi tumanida (3016,7 ming soʻm) hissasiga toʻgʻri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi boʻyicha eng kam koʻrsatkichlar Qumqoʻrgʻon tumanida (1234,7 ming soʻm), Sariosiyo (1472,6 ming soʻm) va Uzun tumanida (1550,6 ming soʻm) qayd etilgan. Ushbu koʻrsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha koʻinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming soʻm	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Surxondaryo viloyati	2714,3	104,5
Termiz Sh.	11240,7	120,6
Oltinsoy	1691,4	99,3
Angor	2423,1	100,3
Boysun	2557,7	103,9
Muzrabot	1950,9	100,7
Denov	3861,6	101,7
Jarqoʻgʻon	1761,2	99,3
Qumqoʻgʻon	1234,7	98,5
Qiziriq	1776,9	99,0
Sariosiyo	1472,6	100,9
Termiz	1724,9	102,9
Uzun	1550,6	99,3
Sherobod	2098,0	100,2
Shoʻchi	3016,7	101,0

Jumladan, 2019 yilning yanvar- sentyabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,9 % ni tashkil etib, 135,5 mlrd. soʻmga yetdi yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 9,6% oʻsishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 86,4 % ulushi kichik tadbirkorlik subsektorlari ulushiga toʻgʻri kelmoqda.


SURXONDARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar- sentyabr)

Yanvar- sentyabr oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1736,5 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 0,6 % ga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajmi kichik tadbirkorlik subektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar- sentyabr oylari yakunlariga ko'ra, 1178,8mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,1 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 67,9 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Termiz (91,6%), Angor (91,6%), Boysun (89,8%), Uzun (84,1%) va Sariosiyo (83,8%) tumanlarida yuqori bo'lgan.

Yirik va kichik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 32,1 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining ulgurji savdo aylanmasining aksariyati Qumqo'rg'on (64,6%), Jarqo'rg'on (54,1%) va Muzrabot (53,9%) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Surxondaryo viloyati	1736,5	99,4	557,7	86,4	1178,8	107,1
Termiz sh.	339,4	88,8	155,1	73,8	184,3	107,0
Oltinsoy	62,3	89,9	32,2	78,3	30,1	106,9
Angor	141,5	110,2	11,9	117,7	129,6	109,6
Boysun	7,5	102,8	0,7	73,4	6,8	107,8
Muzrabot	100,3	104,9	54,1	104,6	46,2	105,3
Denov	258,9	99,3	70,3	82,6	188,6	107,3
Jarqoqg'on	169,0	114,0	91,4	121,6	77,6	106,2
Qumqoqg'on	67,8	93,7	43,8	88,0	24,0	106,5
Qiziriq	148,6	105,7	28,5	98,1	120,1	107,6
Sariosiyo	57,9	105,4	9,4	97,3	48,5	107,2
Termiz t.	141,5	88,4	11,9	30,4	129,6	107,1
Uzun	39,5	92,6	6,3	55,3	33,2	106,0
Sherobod	154,2	117,4	30,5	213,1	123,7	105,7
Sho'chi	43,4	90,4	11,2	64,1	32,2	105,4

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining oʻtgan yilga nisbatan oʻzgarish surʼatlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida oʻtgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi oʻsish surʼati Termiz tumanida (88,4 %) va eng yuqori oʻsish esa Sherobod tumanida (117,4) qayd etilgan.

Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi
tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boʻlimi
(0371) 230-85-82